



ALISHER NAVOIYNING FORSIY DEVONIDA AYOL OBRAZI

TALQINI

NIGINA SALOMOVA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy tomonidan forsiy tilida yaratilgan devonidagi ayol obrazlari tahlil qilinadi. Muallif ayol timsolining badiiy ifodasi, estetik va manaviy jihatlari, shuningdek ushbu obraz orqali ifodalangan tasavvufiy va ijtimoiy g'oyalarga etibor qaratadi. Navoiy ijodidagi ayol obrazi ideal go'zallik, sadoqat, ilohiy muhabbat timsoli sifatida yoritiladi va bu orqali shoirning g'oyaviy-estetik qarashlari namoyon bo'ladi. Maqola ayol obrazining shakllanishida Navoiyga xos poetik uslubning o'rnnini ham ochib beradi.

Kalit so'zlar. Alisher Navoiy, forsiy devon, ayol obrazi, tasavvuf, mumtoz adabiyot, poetika, estetik ideal.

Abstract. This article analyzes the representations of women in Alisher Navoi's Persian-language divan. The authorexplores the artistic expression, aesthetic, and spiritual dimensions of the female figure, while also drawing attention to the mystical and social ideas conveyed through these images. In Navoi's works, the image of a woman is portrayed as a symbol of ideal beauty, loyalty, and divine love. Through this portrayal, the poet's philosophical and aesthetic views are revealed. The article also highlights the role of Navoi's distinctive poetic style in shaping these representations.

Keywords. Alisher Navoiy, Persial divan, female image, Sufism, classical literature, poetics, aesthetic ideal.

KIRISH

Alisher Navoiy-turkiy va forsiy adabiyotda chuqriz qoldirgan mutaffakir shoirlardan biridir. Uning ijodi nafaqat adabiy, balki falsafiy, estetik va ma'naviy jihatdan ham yuksak ahamiyatga ega. Shoirning forsiy devonida ,xususan, g'azal va ruboilarida ayol obrazi ko'plab ramzlar , timsollar orqali gavdalanadi. Bu obrazlar shunchaki lirik qahramonlarning sevgilisi emas, balki butun mavjudod, ishq, haqiqat



va ilohiy go'zallikning aks-sadosi sifatida tasvirlanadi. Mazkur maqola aynan shu ayol obrazining metoforik talqinini yoritishga qaratiladi.

Ayol obrazi Sharq she'riy an'analarida ayol obrazi ko'pincha ma'naviy go'zallik timsoli sifatida namoyon bo'lgan. Qolaversa, ayol obrazi an'anaviy Sharq she'riyatining ramziy - metaforik yondashuvi bilan uyg'unlashgan.[1] Hofiz, Sadiy, Jaloliddin Rumiy singari shoirlar, ijodida ayol, ko'proq, ilohiy jamol, ruhiy oshno, ishq manbai sifatida metoforik talqinda paydo bo'ladi. Bu obraz doimiy ravishda murakkab ma'nolarga ega bo'lib, unda sevgi, yo'qotish, o'zlikni topish va ilohiy haqiqat sari intilish ramzi mujassam bo'ladi. Alisher Navoiy ham forsiy devonida ushbu an'anaviy talqinni davom ettirar ekan, unga o'ziga xos poetik teranlik va falsafiy yondashuv bag'ishlaydi. Alisher Navoiyning forsiy devonida, xususan, g'azal va ruboiylarida ayol obrazi ko'plab ramzlar, timsollar orqali gavdalanadi.[2] Navoiy devonidagi ayol obrazi nafaqat tashqi go'zalligi bilan, balki ichki komilligi, sadoqati va sabr-bardoshi bilan tasvirlanadi. Shoir she`rlarida ayol timsoli majoziy obraz sifatida ilohiy muhabbatga eltuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Masalan:

“Har ze ruxsorat guzaram xok shavad jonam, bas
Ba-ki boshad ki bar on xok shavad jon fido?”

Ushbu baytda sevgilining yuzidan o'tish - jonning tuproqqa aylanishi bilan barobar talqin etiladi. Bu yerda ayol obrazi ilohiy haqiqatga yetishish yo'lida qurbanlik timsoli sifatida berilgan. Yana Navoiy ushbu devonda ayol obrazini faqatgina jismoniy go'zallik mezonlari orqali emas, balki ruhiy komillik va ma'naviy yuksaklik bilan uyg'un holda aks ettiradi. Shoirning poetik tasvirlarida ayol timsoli ko'pincha komil inson, ilohiy ma'rifikat sari yo'l ko'rsatuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Bu obrazning yuksak estetik baholanishi quyidagi misralarda yaqqol ko'rindi.

“Zulfat chu siyoh astu dilam xam siyohist,
Andar dilinga bahr ki yoftam, to ba kojam?”[3]

Bu yerda ayolning “zulfi” - ya'ni sochlari - tashqi go'zallik ifodasi bo'lishi bilan birga, majoziy ravishda ruhiy iztirob, sevgi dardining chuqurligini aks ettiradi.



Zulflarning qora bo'lishi - dilni ham "qoraytirgan", ya'ni u mahbubaning jilvasida o'zini yuqotgan shoir ruhiyatini bildiradi.

Turkiy devon bilan qisqacha qiyos. Navoiy turkiy devonida ayol obrazi yanada hayotiyroq, realist ko'rinishda gohida shikoyatli va mehr-muhabbatli holatda aks etadi. Forsiy she'rlarda esa bu obraz ko'proq ilohiylashtirilgan, falsafiy tushunchalar bilan uyg'unlashgan. Bu farq, ehtimoliy, tilning badiiy -falsafiy salohiyati va asar yozilgan madaniy estetik muhit bilan bog'liqdir.

Xulosa

Navoiy forsiy asarlarida ayol obrazi an'anaviy Sharq sheriyatining ramziy-metoforik yondashuvi bilan uyg'unlashgan holda tasvirlanadi. Bu obraz go'zallik, ish, manaviyat, va haqiqatningramziga aylangan. Shoir ijodidagi bu metaforalar tahlili faqat poetik zavq emas, balki falsafiy teranlikni ham ochib beradi. Ayol obrazi orqali Navoiy insoniy komillik sari intilishning timsolini yaratadi.

Snoskalar

1. Ergashev, S. sharq sheriysi tim sollari. -Toshkent. Mumtoz so'z 2011
B. 210
2. Mirzoyev .Z. Navoiy poetikasi va sharq adabiy an'analari.- Toshkent ; Fan 2014.
- B. 145
- 3.Alisher Navoiy Diwan-i-Fani. Tehran nashri 1374 h.sh.,s. 87.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

- 1.Ergashev, S. sharq sheriysi tim sollari. -Toshkent. Mumtoz so'z 2011
- 2.Mirzoyev .Z. Navoiy poetikasi va sharq adabiy an'analari.- Toshkent ; Fan 2014.
- 3.Alisher Navoiy Diwan-i-Fani. Tehran nashri 1374 h.sh.,s. 87.
- 4.Alisher Navoiy Devoni Foni .-Toshkent G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 1983.5.Saidov.A . Sharq adabiyoti nazariyasi . -Buxoro. BuxDU 2019.